

**Annotatsiya****MARKAZIY OSIYO XALQLARI AMALIY SAN'ATIDA O'TROQ
VA KO'CHMANCHI TURMUSH TARZINING AKS ETISHI.****Kurbanova Nilufar Abdumutalib qizi**Namangan Davlat Universiteti Tasviriy va amaliy
san'at kafedrası mustaqil tadqiqotchisiE-mail: nkurbanova484@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.20905530>

Ushbu maqolada xalq amaliy san'atida ko'chmanchi va o'troq turmush tarzining aks ettirilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikkala turmush tarzi uchun xos madaniy, ijtimoiy va estetik xususiyatlar naqshlar va badiiy elementlar orqali qanday ifodalanganligi o'rganiladi. Ko'chmanchi turmush tarzi bilan bog'liq ramzlar, masalan harakat erkinligi, tabiat bilan uyg'unlik va chorvachilik an'analari, shuningdek, o'troq yashovchi xalqlarga xos me'morchilik, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi amaliyotlari tasvirlari amaliy san'ati kontekstida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalq amaliy san'atidagi naqshlar xalqlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim madaniy manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ko'chmanchi turmush tarzi, o'troq turmush tarzi, xalq amaliy bezak san'ati, milliy meros, dekorativ san'at, xalq amaliy san'ati, madaniy an'analari, ramziy tasvirlar, hunarmandchilik, me'moriy bezaklar, etnomadaniyat.

Insoniyat tarixida ko'chmanchi va o'troq turmush tarzi jamiyat rivojlanishining muhim bosqichlari sifatida paydo bo'lib, xalqlarning madaniyati, urf-odatlarini, hayot tarzi va san'atiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bu ikki turmush tarzi nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy hayotda, balki xalqning amaliy bezak san'atida, jumladan naqqoshlik san'atida ham o'ziga xos badiiy ifodani topgan. Rasm chizish xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim san'at turlaridan biri hisoblanadi.

Ko'chmanchi xalqlarning tabiat bilan uyg'un hayoti, harakat erkinligi hamda chorvachilik va ovchilik bilan bog'liq faoliyatlari soddalik, dinamizm va ramziy tasvirlar orqali naqshlarda ifodalangan. Bunga qarama-qarshi, o'troq yashovchi xalqlarning madaniyatlarida me'morchilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va shaharsozlik an'analari murakkab kompozitsiyalar va nafis bezaklarda namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, naqqoshlik namunalari turli davrlar hayot tarzining badiiy aks ettirilishini o'rganish uchun muhim tarixiy va madaniy manba hisoblanadi.

Bugungi kunda xalq amaliy san'ati milliy madaniy merosni saqlash va uni yosh avlodga yetkazishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xalq amaliy san'atida aks etgan ramzlar, bezak elementlari va kompozitsion yechimlarni o'rganish orqali millatning tarixiy rivoji, ma'naviy qadriyatlarini va turmush tarziga oid qimmatli ma'lumotlar olish mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi ko'chmanchi va o'troq turmush tarzining naqqoshlikda aks etish xususiyatlarini tahlil qilish, ularning badiiy ifoda vositalari, ramziy ma'nolari va milliy madaniyat rivojlanishidagi o'rnini yoritishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi va tahlil

Ushbu tadqiqotda ko'chmanchi va o'troq turmush tarzini naqqoshlik san'atida aks ettirilish xususiyatlarini o'rganish uchun tarixiy-taqqoslash, san'atshunoslik va tavsifiy tahlil

usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida xalq amaliy san'ati va naqqoshlik bilan bog'liq ilmiy adabiyotlar, tarixiy manbalar hamda san'at asarlari o'rganilib, ularning mazmuni va mohiyati tahlil qilindi.

U.Janibekovning “Культура казахское ремесла”, A.X.Margulanning “Казахское народное прикладное искусство” nomli kitoblarini tahlil qilsak qozoq xalqi naqshlari 4 turga bo'linib ulardan zoomorfik naqsh turi eng ko'p naqsh elementlarini o'z ichiga olgan hisoblanadi. Huddi shunday qirg'iz xalqining xalq amaliy san'atining ajralmas qismi bo'lgan naqqoshlikni o'rgangan M.V.Rindin o'zining “Qirg'iz milliy naqshlari” nomli kitobida “Qirg'iz ornamenti 173 ta asosiy elementdan iborat bo'lib, ularboshqa elementlar bilan birlashganida 3500 dan ortiq bezak subyektlarini tashkil qiladi. Qirg'iz naqshning 173 ta asosiy elementlari 4 guruhga bo'linadi: 1) hayvonot olami-98 ta element, 2) O'simlikdunyosi-20 ta element, 3) lanshaft va tabiat hodisalari 10 ta element 4)maishiy-39 ta va diniy-6 ta”¹ deb takidlab o'tgan. Ushbu tahlilda ham ko'rishimiz mumkinki qirg'iz xalqining ham asosiy naqsh elementlari hayvonot olami bilan bog'liq.

O'zbek, tojik va turkman xalqlarining naqqoshlik san'ati bir biriga o'xshash bo'lib ularning naqshlarida geometric shakllar o'simliklar dunyosi ustunlik qiladi. Asosan girih va islmiy naqshlardan foydalanishadi. O'zbek naqshlari haqida pedagogika fanlari doktori professor S.S.Bulatovning bir qator darslik va o'quv qo'llanmalari: “O'zbek xalq amaliy bezak san'ati,- Naqqoshlik, Ganchkorlik,-Naqsh alifbosi,-

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati ensiklopediyasi”da ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism

Markaziy Osiyoda tarixan ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi hayot tarzini olib borgan asosiy xalqlarga:

Qozoqlar —asosan keng dasht hududlarida yashagan. Ularning tarixiy yashash hududlari bugungi Qozog'iston hududining katta qismi, O'zbekistonning shimoliy va g'arbiy qismlari, Rossiyaning janubiy dashtlari, Xitoyning g'arbiy qismidagi Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni hamda Mo'g'ulistonning g'arbiy hududlariga to'g'ri keladi.

“Qozoq xalqining asosiy mashg'uloti ko'chmanchilikka asoslangan chorvachilik bo'lgan, faqat janubdagi (Sirdaryo bo'yidagi) ba'zi vohalarda sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Asrlar mobaynida qozoqlar ko'chmanchi chorvador qabilalar qatori yashab kelgan. Chorvachilikda asosan qoramol, yilqi, qo'y va tuya boqilgan. Qo'ychivonlari qo'y-qo'zilarni ko'paytirish bilan shug'ullangan. Qo'yning juni, terisi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Xo'jalikning ikkinchi muhim tarmog'i yilqichilik edi. Ot, bir vaqtni o'zida ham tengi yo'q dastyor, transport vositasi, ham qimiz manbai, go'shti, qazi-qartasi esa sevimli taom bo'lgan. Qozog'istonning janubiy, markaziy va g'arbiy cho'l va chala cho'l yerlarida ayniqsa, tuyachilik keng rivojlangan. Asosan bir o'rkachli (nor tuyalar bilan qo'sh o'rkachli (ayir o'rkash) tuyalar boqilgan. Nor tuyalar nisbatan baquvvat va chidamli bo'lganligi sababli, ularni boqishga nisbatan ko'proq e'tibor berib kelingan. Tuya yaxshi yuk tashish vositasi bo'lishi bilan birga, uning juni juda qimmat turgan, tuya sutidan shubat deb ataladigan to'yimli ichimlik tayyorlangan.

Qozoqlar xo'jaligida qoramol juda kam bo'lgan. Faqat keyingi vaqtlardagina qoramol saqlash va

¹ M.V.Rindin.Qirg'iz milliy naqshlari. Leningrad.Frunze.1948.18-b.

boqishga katta e'tibor beradigan bo'lishdi"². Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turib tiki qozoq xalqining turmush tarzi asosan chorvachilik bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ham ularning moddiy madaniyatida, xususan, uy-ro'zg'or buyumlari, gilamlar, kigizlar, egar-jabduqlar, zargarlik buyumlari va yog'och o'ymakorligi namunalari zoomorfik bezak elementlari keng uchraydi. Hayvonlarning shoxlari, tuyoqlari, qanotlari va boshqa tana qismlaridan ilhomlangan naqshlar xalqning tabiat bilan uzviy aloqasi, dunyoqarashi hamda estetik qarashlarini aks ettiradi. Masalan: xalq amaliy san'atida "qo'chqor shoxi", "tuya bo'yni", "qush qanoti" kabi naqsh va ramzlar alohida o'rin tutadi. Ushbu bezaklar nafaqat estetik vazifani bajargan, balki farovonlik, kuch-qudrat, baraka va himoya timsoli sifatida ham talqin qilingan. Shu bois chorvachilik an'analari qozoq xalqining nafaqat iqtisodiy hayoti, balki ma'naviy va badiiy madaniyatining shakllanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qilganini isbotidir.

Qirg'izlar —asosan tog'li hududlarda yashagan. Ularning tarixiy yashash joylari Qirg'izistonning tog'li hududlari, Tyanshan tog'lari, Tojikistonning shimoli, Xitoyning g'arbiy qismidagi Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni hamda O'zbekistonning ayrim chegara hududlarig to'g'ri keladi. Qirg'izlar yozda baland tog' yaylovlari — "jayloo"larga chiqib, qishda esa pastroq vodiylarga tushgan. Ular ham qo'y, ot va qoramol boqish bilan shug'ullangan. "Ko'p asrlar davomida qirg'izlarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan. Qirg'iz chorvadorlari ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hayot kechirishgan. Qirg'izlar juda qadimdan ardoklab, e'zozlab kelayotgan chorvachilik mintaqaning janubida keng tarqalgan. Shuningdek, ular qo'sh o'rkachli tuya urchitishgan bo'lib, bu kasb, ayniqsa, O'sh viloyatining tog'li yerlarida rivojlangan.

Qirg'izlar mo'g'ul zotli otlarni boqishgan. Eshak, xachir kabi uy hayvonlaridan keng foydalanish Qirg'izistonning barcha hududlarida tarqalgan edi. Har bir urug'-aymoq, qabila chorvadorlari mol-holini o'zlariga ajratilgan yerlarda boqqanlar. Qo'y-qo'zi, yilqilar olis yaylovlardagi otarlarda parvarish qilingan."³ Qozoqlar ko'proq dasht ko'chmanchilari bo'lsa, qirg'izlar tog' ko'chmanchilari hisoblanadi. Ikkala xalq ham ko'chmanchi turmush tarziga moslashgan holda o'tov (yurta)larda yashagan, boy og'zaki ijod va chorvachilik madaniyatini rivojlantirgan. Qirg'iz xalqining turmush tarzi huddi qozoq xalqining turmush tarsi kabi chorvachilik bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, ularning ham moddiy va ma'naviy madaniyatida hayvonot olami bilan bog'liq tasvirlar va ramziy bezaklar alohida o'rin egalladi. Tadqiqotchi M. Rindin o'zining "Qirg'iz milliy naqshlari" nomli asarida qirg'iz xalq amaliy san'atida hayvonot olami bilan bog'liq 98 ta bezak elementi mavjudligini ta'kidlaydi. Bu esa qirg'izlarning estetik qarashlari, ramziy tafakkuri va chorvachilikka asoslangan turmush tarzining milliy bezak san'atida qanchalik chuqur aks etganini ko'rsatadi.

Ularning naqshlarida "qo'chqor shoxi" shaklidagi naqshlar kuch-qudrat, baraka va farovonlik timsoli sifatida talqin qilingan.. Bunday naqshlar nafaqat me'moriy bezaklarda, balki yog'och o'ymakorligi, gilamchilik va maishiy buyumlarda ham keng qo'llanilgan.

² A.X.Doniyorov, O.Bo'riyev, A.A.Ashirov. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Yangi nashr"-2011. 175-b.

³ A.X.Doniyorov, O.Bo'riyev, A.A.Ashirov. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Yangi nashr"-2011. 190-b.



Ko'chmanchilik madaniyatining yana bir muhim jihati tabiat bilan uyg'un yashash g'oyasidir. Shu sababli quyosh, yulduz va osmon jismlariga oid ramziy elementlar ham naqqoshlik kompozitsiyalarida muhim o'rin tutgan.

Ammo Markaziy Osiyodagi barcha xalqlari ham ko'chmanchi bo'lmagan. Masalan, O'zbeklar va Tojiklar asosan o'troq xalq hisoblanib asosan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan. Turkmanlar esa tarixan Markaziy Osiyoning cho'l va yarim cho'l hududlarida yashagan, chorvachilik bilan shug'ullangan yarim o'troq va yarim ko'chmanchi xalq hisoblanadi. O'troq hayot tarzini olib borgan xalqlar madaniyatining naqshlarda ifodalanishi asosan dehqonchilik bilan bog'liqdir. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi uchun yer, suv, hosildorlik va bog'dorchilik muhim ahamiyat kasb etgan. Bu holat naqqoshlik san'atida o'simliksimon naqshlarning keng rivojlanishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, islmiy naqshlar dehqonchilik madaniyatining eng yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Gul, barg, novda, g'uncha va meva tasvirlari hosildorlik, hayot davomiyligi hamda tabiatning abadiy yangilanishini anglatgan. XX asr boshlarida masjidlar, madrasalar, turar joylar va jamoat binolarining bezaklarida o'simliksimon naqshlardan keng foydalanilgan. Girih va islmiy bezaklar ustunlik qilgan. Bunday naqshlar hayot, baraka va farovonlik ramzi sifatida qabul qilingan.

Natija

Ko'chmanchi xalqlar naqshlarida chorvachilik, keng dashtlar, hayvonot olami va harakat dinamikasini ifodalovchi geometrik hamda zoomorfik unsurlar ustunlik qilgan bo'lsa, o'troq aholi san'atida dehqonchilik madaniyati, bog'dorchilik va o'simlik dunyosi bilan bog'liq islmiy hamda murakkab kompozitsion naqshlar keng rivojlangan. Natijada naqshlarda tabiat, chorvachilik, dehqonchilik va kundalik turmush bilan bog'liq ramziy tasvirlar keng qo'llanilib, ular mintqa xalqlarining tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va turmush tarzini aks ettiruvchi muhim badiiy vositaga aylangan.

Xulosa.

Naqsh elementlarining shakllanishiga ta'sir etgan asosiy omillardan biri xalqlarning yashash muhiti va xo'jalik faoliyati, ya'ni ko'chmanchi yoki o'troq turmush tarzida hayot kechirishi naqsh san'ati taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Ushbu ikki turmush tarzi xalq amaliy san'atining barcha yo'nalishlariga, jumladan, naqqoshlik san'atiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'chmanchi hayot tarzida shakllangan naqshlarda erkinlik, harakat va tabiat bilan uyg'unlik g'oyalari ustunlik qilsa, o'troq hayot tarziga xos bezaklarda barqarorlik, mehnat, hunarmandchilik va ma'naviy qadriyatlar aks etgan. Naqqoshlik san'ati har ikki turmush tarzining madaniy xususiyatlarini saqlab qolgan holda, ularning estetik qarashlari va dunyoqarashini badiiy shaklda ifodalab bergan.

Shuningdek, naqqoshlik namunalari qo'llanilgan ranglar, kompozitsion yechimlar va ramziy tasvirlar tahlili orqali xalqning tarixiy xotirasi hamda milliy an'analari avloddan-avlodga yetkazilganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.M.V.Rindin. Qirg'iz milliy naqshlari. Leningrad. Frunze. 1948
- 2.A.X.Doniyorov, O.Bo'riyev, A.A.Ashirov. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Yangi nashr"-2011.



3.Ю.Я.ГерчукЧто такое орнамент? Москва-1998

4.S.S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.Toshkent:mehnat.1991

5.В.Р Denike. Архитектурный орнамент Средней Азии. Москва-Leningrad.1939

